

**SAIDAKBAROV Xalilulloh Saidmuxtor o'g'li**  
*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi*  
*Islomshunoslik yo'nalishi 2-kurs magistranti*  
*saidakbarovxalilulloh@gmail.com*

## IMOM MOTURIDIYNING “TA’VILOT AL-QUR’ON” ASARIDA OYATLARNING HADIS BILAN TAFSIR QILINISHI

## ТОЛКОВАНИЕ АЯТОВ ХАДИСАМИ В КНИГЕ «ТАВИЛАТ АЛЬ-КУРЪАН» ИМАМА МАТУРИДИ

## INTERPRETATION OF AYATS WITH HADITHS IN THE BOOK “TAVILYAT AL-KUR’AN” BY IMAM MATURIDI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Movarounnahr diyoradan yetishib chiqqan mutakallim Abu Mansur al-Moturidiyning Ta’vilot al-Qur’on nomli tafsir asari, unda qo’llanilgan tafsir uslubi, qo’lyozmalari, kutubxonalarda saqlanayotgan nusxalari va asarda oyatlar tafsirida hadisning o’rni haqida so’z yuritilgan.

Abu Mansur al-Moturidiy mutakallim bo’lish bilan birga ayni damda mufasssir hamdir. Olimning bizgacha yetib kelgan ikki asaridan biri tafsirga oid bo’lib “Ta’vilot al-Qur’on”, “Ta’vilot ahli-sunna” nomlari bilan tanilgan. Maqolada ushbu asarning qo’lyozmalari, nusxalari va zamonaviy nashrlari haqida so’z yuritilgan.

Imom Moturidiy tafsir ilmida aqliy tafsir uslubi bilan bir qatorda naqliy tafsir uslubini ham qo’llagan bo’lib, tafsirda hadislardan keng foydalangan. Maqolada hadislarning ushbu tafsirda tutgan o’rni haqida ham ma’lumot berilgan.

**Kalit so’zlar:** Moturidiy, tafsir, aqliy tafsir, naqliy tafsir, oyat, hadis, rivoyat.

**Аннотация:** В этой статье рассказывается о труде по тафсиру ученого Абу Мансура аль-Мотуриди, выросшего в Моваруннахре, называемом Та’вилат аль-Коран, стиле тафсира, используемом в нем, рукописях, копиях, хранящихся в библиотеках, и месте хадисов при толковании аятов в работе.

Абу Мансур аль-Мотуриди — ученый и комментатор. Одна из двух дошедших до нас работ ученого связана с толкованием, известным как «Та’вилот ал-Коран» и «Та’вилот ахли-сунна».

В статье рассматриваются рукописи, копии и современные редакции этого произведения.

В науке тафсира имам Мотуриди использовал метод накли тафсир, а также метод интеллектуального тафсира, и широко использовал хадисы в тафсире. В статье также приводится информация о роли хадисов в этом толковании.

**Ключевые слова:** Мотуриди, тафсир, интеллектуальный тафсир, накли тафсир, аят, хадис, повествование.

**Abstract:** This article talks about the tafsir of the scholar Abu Mansur al-Moturidi, who grew up in Mawaraannahr, called Ta’wilat al-Qur’an, the style of tafsir used in it, manuscripts, copies kept in libraries, and the role of hadith in the interpretation of verses in the work.

Abu Mansur al-Maturidi is a mutakallim scholar and a mufasssir. One of the two works of the scientist that have reached us is related to tafsir, known as “Ta’wilat al-Qur’an” and “Ta’wilat ahli-sunna”. The article discusses the manuscripts, copies and modern editions of this work.

In the science of tafsir, Imam Maturidi used the method of naqli tafsir as well as the method of intellectual tafsir, and used ahadith extensively in tafsir. The article also provides information about the role of ahadith in this interpretation.

**Keywords:** Maturidi, tafsir, tafsir aqli, tafsir naqli, verse, hadith, narration.

## KIRISH

Imom Moturidiyning to’liq ismi Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Abu Mansur al-Moturidiy as-Samarqandiy. Ulamolar orasida hurmat bilan Imom al-Moturidiy deb atalgan. Shuningdek, “Imom al-huda”, “Imom al-mutakallimin”, “Rais ahli sunna val jamoa”, “al-Imom az-zohid”, “Musahhih ahli sunna val jamoa” kabi laqablar bilan ham tanilgan. Moturidiyning nomi Samarqand yaqinida joylashgan “Moturid” qishlog’iga nisbat berilgan.

Imom Moturidiy tavallud sanasi xususida ham turli ixtiloflar bo’lgan. Aksariyat manbalarda bu sana 256/870-yil deb ko’rsatilgan. Biroq, arab tadqiqotchisi Muhammad Ayyubning ta’kidlashicha, Moturidiy taxminan 238/853-yil atrofida tug’ilgan. Uning e’tibor berishicha, Moturidiyning ustozlaridan Muhammad ibn Muqotil ar-Roziy 248/862-yili, Nusayr ibn Yahyo al-Balxiy esa 268/881-yili vafot etgan. Agar Moturidiy 256/870-yili tug’ilgani taxmin qilinsa, ustoz Muhammad ibn Muqotil vafot etganida u

hali dunyoga kelmagan, Nusayr ibn Yahyo vafot etgan paytda o'n bir yoshli bola bo'lganligi kelib chiqadi. Bu esa haqiqatdan yiroqdir [8; 264-265]. Allomaning vafot etgan sanasi haqida barcha tabaqot kitoblarida bir xil ma'lumot, ya'ni 333/944-yil deb ko'rsatilgan.

Moturidiya ta'limotining mashhur vakili Abul Mu'in an-Nasafiy "Tafsirat al-adilla" asarida Moturidiy qalamiga mansub o'ndan ziyod asarlar ko'rsatib o'tgan. Ammo bizgacha Moturidiyning "Kitob at-tavhid" va "Ta'vilot al-Qur'on al-karim" nomli asarlari yetib kelgan va ular haqida aniq tasavvurga egamiz.

### ASOSIY QISM

**Imom Moturidiyning Ta'vilot al-Qur'on asari.** Kitobning nomi yozma nusxalarda va manbalarda "Ta'vilot al-Moturidiyya", "Ta'vilot li-Abi Mansur al-Moturidiy" kabi ko'rinishlarda keladi. Faqat muallif "Kitob at-tavhid" asarida ham, ushbu tafsir asarida ham "Ahli sunna" so'zini ishlatmaganiga ko'ra "Ta'vilot ahli-sunna" nomini kiritish to'g'ri emas [4; 57]. Ta'vilot al-Qur'on asarining Imom Moturidiyga nisbati turli manbalarda, qolaversa Abul Mu'in an-Nasafiy me'rosini o'rganishda o'z tasdiqini topmoqda. Shuning barobarida "Kitob at-Tavhid" va bu asar orasidagi uslub, ifodalar, xulosa chiqarishdagi o'xshashlik, xatto ba'zi o'rinlardagi bir-xillik, Ta'vilotdagi ko'pgina mavzular "Kitob at-Tavhid" mazmuni bilan bir-biriga mos kelishi bu ikki asarning bir muallifga tegishli ekanini tasdiqlamoqda. Qolaversa A'rof surasi 143-oyatining tafsirini [3; 48-58] juda oz farq bilan "Kitob at-Tavhid" asarida ko'rish mumkin. Bundan tashqari bahslarning oxirida qo'llanilgan ba'zi jumlar (Eng to'g'risini Alloh biluvchi, Tavfiq Allohdan) har ikki asarda uchraydi. Abu Mansur al-Moturidiy "Kitob at-Tavhid" asari bilan ahli sunna kalom ilmining asoschisi deb vasflangani kabi Ta'vilot al-Qur'on asari bilan diroyat tafsirining asoschi deb aytishimiz mumkin. Zamondoshi Ibn Jarir at-Tabariy (vaf. 310/923) Qur'onni mushaf tartibiga ko'ra rivoyat yo'li bilan tafsir qilar ekan, Imom Moturidiy ham tafsirni diroyat yo'li bilan amalga oshirgan. Imom Moturidiyning tafsiri kitobning boshidan o'rin olgan ta'vil va tafsir bilan bog'liq tafsilotlariga ko'ra rivoyat uslubi e'tobordan chetda qolmagan holda diroyat yo'li bilan yozilgan.

Ta'vilot al-Qur'on asarida Kitob at-Tavhiddan faqrli ravishda muallif tomonidan bevosita qalamda yozilmagan, balki shogirdlariga o'tgan darslaridan tarkib topgan. Bu holat tushunilishi qiyin bo'lgan iboralar, takrorlar, bir oyat tafsirining avvalgi yoki keying oyat tafsiridan o'rin olishi kabilarda aks etmoqda.

Ta'vilot al-Qur'onda tafsir ilmi, kalom, fiqh va usuli fiqh, mu'taziliya va boshqa mazhablar, turli dinlar, qarashlar va oqimlarning tushunchalari kabi mavzularda bahs yuritiladi. Payg'ambar alayhissalom va sahobalardan, Moturidiydan avvalgi mufasssirlardan, qiroat va lug'at olimlaridan kelgan rivoyatlar e'tiborga olingan holda diroyat uslubida yozilgan Ta'vilot asari bu uslubda yozilgan tafsirlar uchun namuna deyish mumkin. Kitob nashr etilgandan keyin olib borilgan qiyosiy tadqiqotlar asarning ta'sirini ochib beradi. "Al-Kashshof" nomli tafsiri bilan katta shuhrat qozongan Zamahshariyning (vaf. 538/1144) Ta'vilotdan foydalangani ilgari surilgan. Ahli sunna ulamolari orasida Ta'vilot al-Qur'on asarining tanilmagani sababidan diroyat tafsirining asoschisi sifatida qabul qilingan Fahriddin Roziy "Kitabul Arbain"da va "Mafotihul g'ayb"ning besh o'rinda Ta'vilotdan iqtiboslar keltirgan, Abu Hayyon al-Andalusiy esa "Al-Bahrul-muhit" asarida zikr qilib o'tgan.

Bugunga qadar Ta'vilot al-Qur'onning o'ttiz besh nusxasi aniqlangan. Bularning yigirma to'qqizi Istanbulda bo'lib (O'n oltitasi Sulaymoniya kutubxonasida, boshqalari Köprülü, Hacı Selim Aga, Atif Efendi, Nuruosmaniye va Topkapi saroyi muzeyi kutubxolarida ro'yxatdan o'tgan) oltitasi to'liq, qolganlari to'liq bo'lmagan holatda. Kayseri Rashid Efendi, Konya Yusuf Ag'a va Tire Necip Paşa kutubxonalarida ham bir donadan nusxasi bor. Qolaversa asarning Damashq Zohiriyya va Qohira Dorul kutub al-Misriyyadagi nusxalaridan tashqari Berlin va Londonda ham nusxalari mavjud. Muhammad Erog'lu Ta'vilotning Fotiha va Baqara suralarining ilmiy nashrini amalga oshirgan, Ibrohim Avadayn va Sayyid Avadayn Fotiha va Baqara surasining 141-oyatigacha bo'lgan qismini nashr qilgan. Muhammad Mustafazurrohman 1983-yilda Bag'dotda Fotiha va Baqara suralarini chop etgan. Asarning Bekar Topaloğlu ilmiy rahbarligida boshlangan nashr ishlaridan avval sinov tariqasida Fotiha surasi, Oyatal kursiy, Baqara surasining ikki oyati, Hashr surasining oxirgi to'rt oyati va Fil surasidan e'tiboridan Qur'onning oxiriga qadar o'nta sura

Ahmet Vanlioğlu tamonidan nashrga tayyorlangan. Bu nashr ishlari boshlangan vaqtda boshqa tarafdin asar to'liq holda Bayrutda nashr qilingan. Fotima Yusuf al-Hiyomiy tarafdin tayyorlangan bu nashrda kerakli nusxalar ko'rib chiqilmagani, asar sharhidan matnni tushunishga yordam beruvchi izohlar olinmagani va ba'zi kamchiliklar bartaraf etilmagani ko'rilmogda.

Imom Moturidiyning izdoshi va ta'limotining davomchisi bo'lgan Abul Mu'in an-Nasafiy Ta'vilotdan dars berarkan asarga bergan izohlarini shogirdi Alouddin Muhammad ibn Ahmad ibn Abu Ahmad as-Samarqandiy keyinchalik to'plab tartiblagan va kitob holiga keltirgan. Hoji Xalifa "Kashf az-zunun" asarida "Ta'vilot al-Moturidiyya fi bayon usul a-sunna va usul al-tavhid" nomli kitob haqida ma'lumot berib o'tgan. Uning ta'kidlashicha, Alouddin as-Samarqandiy jamlagan ushbu kitob allomaning boshqa kitoblari orasida tili va uslubi jihatidan eng oson va ravon o'qiladigan asar bo'lgani sababli moturidiya ulamolarining asosiy manbai hisoblangan. Lekin Alouddin as-Samarqandiy ushbu kitobining muqaddimasida Ta'vilot asarida tushunilishi qiyin bo'lgan iboralar va yashirin ma'nolar borligi va ko'pchilik ulamolar ularni yecholmaganini ta'kidlab, usul ad-din va usul al-fiqh bilan bir qatorda lug'at va nutq san'ati bilan shug'ullanganlar tushuna olishini ta'kidlaydi. "Sharhu Ta'vilot al-Qur'on" deb nomlangan asarida bir tamondan tushunilishi qiyin bo'lgan iboralar izohlansa, boshqa tamondan Hanafiya-Moturidiya doirasida batafsil ma'lumotlar berilgan bo'lib Ta'vilot asari nusxalaridagi mavjud xatolarning tuzatilishiga imkon yaratmogda. Faqat bu sharhda Qahf surasidan e'tiboran izohlar berilmagan. Boshqa tamondan esa Ta'vilotdagi ba'zi iboralarga sharhda to'xtalib o'tilmagan. Ta'vilotning ushbu sharhi bugunga qadar to'qqizta nusxada aniqlangan. Ularning oltitasi Istanbul kutubxonalarida bo'lib, nusxalar Makka, Toshkent, Bankipur kabi shaharlarda ham qayd etilgan. Toshkent shahridagi nusxasi faqat Oli Imron bilan Niso suralarini o'z ichiga olmogda. Bankipurdagi nusxasi haqida esa ma'lumotlar yo'q. Ta'vilot al-Qur'on asariga sharh mohiyatida amalga oshirilgan tadqiqotlardan yana biri Usmonli olimlaridan Lolazariyga oid bo'lib, Lolazariy Fotiha surasining besh oyati izohlari bilan bog'liq "Al-Yakuta al-hamro" nomli bir sharh yozgan [4; 59-60].

Kunimizda O'zbekistonda Imom Moturidiy xalqro ilmiy-tadqiqot markazi tamonidan Ta'vilot

al-Qur'on asari ilk bor o'zbek tiliga tarjima qilinib, yigirma to'qqizinchi va o'ttizinchi juzlari nashr qilindi.

**Imom Moturidiyning tafsir ilmidagi tutgan yo'li.** Abu Mansur al-Moturidiy mutakallim va faqih bo'lishi bilan bir qatorda mufasssirlar hamdir. Qur'oni karim tarix davomida ko'plab kishilar tarafdin tafsir etilgan bo'lib, ularning ba'zilari tafsirlarini asosan rivoyat ustunligida yozganliklari uchun bu turdagi tafsirlarga rivoyat tafsiri, ba'zilari esa tafsirlarini aqliy yondashuvlarga ustunlik berib tafsir qilganliklari uchun bu turdagi tafsirlarga diroyat tafsiri deyilgan. Imom Moturidiy, bu ikki turdagi tafsir xususiyatidan qaraganimizda aqliy tafsir uslubining ilk tamsilchilaridan biri deb qabul qilishimiz mumkin. Imom Moturidiy Ta'vilot al-Qur'on asarining boshida tafsir bilan ta'vil orasidagi farqni aytib, bu ikki tushunchaga o'zidan avval berilmagan ma'nolarni beradi. Imom Moturidiyga ko'ra tafsir Allohning murodi nima ekanligi borasida keskin bir fikrni bayon etishdir. Ta'vil esa Allohning murodi nima ekanligi borasida keskin hukm bermasdan, ehtimoliy bo'lganlardan faqatgina birisini tarjih etishdir.

Tadqiqotchilarga ko'ra Imom Moturidiy ta'vil qilishda Abu Hanifaning ta'vil bilan bog'liq qarashlaridan ta'sirlanib, ray bilan tafsir qilinmay, faqatgina ta'vil yo'li bilan tafsir qilish mumkin deb qaraganini aytadilar. Abu Hanifaga ko'ra oyatlarning tanzili bilan ta'vili aynidir, ya'ni oyatning ma'nosi ochiq va tushunarlidir, qancha ta'vil etilsa ham ayni ma'no chiqadi, ba'zilarining esa tanzil va ta'vili farqlidir. Oyatning lafzidan tushunilgan ma'nodan tashqari bir ma'nosi bordir, bu ma'noga ta'vil yo'li bilan yetishiladi. Bu holatda oyatning tanzili va ta'vili farqli bo'ladi. Tanzili va ta'vili farqli bo'lgan bir oyatning ta'vilini inkor etish, oyatni inkor qilish ma'nosida kelmaydi. Bunga ko'ra har bir mufasssirlardan foydalanib va izchil bir usulga tayangan holda Qur'onni anglashi va izhlashi mumkin. Faqat ma'lum usullar bilan yuzaga kelgan ta'vilda o'zining qarashlarini Allohning mutloq murodi o'laroq taqdim etishiga yo'l yo'qdir. Imom Moturidiy qarashiga ko'ra ta'vil qilish mutloqlik emas balki nisbiylikdir. Imom Moturidiy ta'vilga katta ahamiyat berish bilan birgalikda hadislarga va sahobalar tafsiriga murojaat qilgan. Boshqa mufasssirlarga qiyos qilib tafsirda hadislardan foydalanar ekan, Imom Moturidiy dalil sifatida keltirgan hadislarni sanadi

va ayni lafzi bilan naql qilish o'rniga, ma'nosining o'zini rivoyat qilib keltirgan [4; 60].

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek Imom Moturidiyning tafsir usulini tadqiq etgan olimlar uning tafsir va ta'vil ta'rifi e'tibor qaratganlar. Ta'vilot al-Qur'onning ba'zi yozma nusxalarida bosh qismidan o'rin olan muallifning tafsir usuliga xulosa beruvchi matnga ko'ra tafsir, oyatning ma'nosi nimadan iborat ekanini keskin bir hukm bilan "Allohning murodi shundan iboratdir" deyishdir. Bu ham faqat oyatlarning qanday munosabat bilan va qaysi mavzuda nozil bo'lganidan xabardor sahobalar qila oladigan ishdir. Ta'vil esa "bir narsani asliga va bunga bog'liq holda ko'zda tutilgan maqsadiga qaytarishdir" ko'rinishidagi ifodani o'z ichiga olgan harakat bilan ma'noni yo'naltirilishi mumkin bo'lgan yo'nalishga burishdir. Ulamolargina amalga oshira oladigan bu yo'nalishda Allohning irodasi nimadan iborat ekani haqida keskin bir qarorga kelish mumkin emas. Bunga ko'ra tafsir bir hukm bilan bog'liq ekan, ta'vil esa birdan ortiq ma'noga eshik ochuvchi aqliy ishdir [4; 60]. Darhaqiqat, Imom Moturidiyning asariga "Ta'vilot al-Qur'on" nomi berilishi ham yuqoridagi tushunchalarning mahsulidir. Asar chuqur o'rganilganda muallifning ham tafsir ham ta'vil usullarini qo'llagini ko'rinadi. Imom Moturidiy bir qancha sahobalardan, xusasan Abulloh ibn Abbos (r.a)dan rivoyatlar keltiradi. Shu bilan birga Imom Moturidiy o'z xulosalari va yo'nalishini aytib, ham ilmiy ham taqvo darajasidagi bir ehtiyotkorlik yo'lini tutadi va "Asl haqiqatni Alloh biladi" iborasini tez-tez takrorlaydi. Imom Moturidiyning murodi-ilohiyni aniqlash borasidagi bu usulini Tabariyning tafsirida ham ko'rish mumkin. Qur'oni karim ma'nolarini tushunish va oyatlardan hukm chiqarish uchun tafsir va usul al-fiqh sohalarida keyinchalik umume'tirof etilgan farq, oyatlarni muhkam-mutashobih, mufasssal-mubham guruhlariga bo'lishdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Ta'vilotda qo'llanilgan usul yanada aniqroq deyish mumkin.

Qur'oni karimni tafsir qilish va oyatlardan Allohning irodasi nimadan iborat ekanligi borasida ilk davr mufasssirlari ehtiyotkor bo'lishgan. Bu davrlarda faqat sahobalardan naql qilingan tafsir xususiyatida rivoyat qilgan tobe'iy va taba'a tobe'iy nlar rivoyati bilan Qur'ondagi ba'zi kalimalarning gramatik va lug'at nuqtai nazaridan sharhlangan asarlar mavjud edi. Abu Ubayda Ma'mur ibn Musanna at-Taymiyning (vaf. 209/824)

"Majozul Qur'on" asari bu turdagi ta'liflarning yorqin namunasidir. Tafsir tarixida Qur'onni o'z tartibiga ko'ra boshidan oxirigacha ilk tafsir qilgan mufasssir Tabariy ekanligi qabul qilingan. Uning "Jamiul bayon" asari rivoyatlarga tayanishi bilan birgalikda naql qilingan farqli qarashlar orasida tarjih qilgani bilan ham tanilgan. Xuddi shu kabi diroyat tafsirining ilk asari o'laroq Fahriddin Roziyning "Mafotihul g'ayb" asari zikr qilinadi. Holbuki Roziydan uch asrga yaqin vaqt muqaddam Imom Moturidiyning Ta'vilot al-Qur'on asari yozilgan edi. Tafsir ilmi hadis sohasidan ajralib mustaqil bir ilm holiga kelgan davrda o'sha davrda yashagan Abu Ja'far at-Tabariy rivoyat usulining, Imom Moturidiy esa diroyat usulining ilk va tamal tafsir asarlarini yozdi.

Imom Moturidiyning tafsir usulida tafsir va ta'vilga uyg'un holda ham naqlga ham aqlga tayanganini aytishimiz mumkin. Shaki nuqtai nazaridan oyatlarning tafsirida odatda o'zining tushunchalarini keltirib o'tishdan boshlagan. Tafsir qilishda ko'p o'rinlarda ismlarni ma'lum qilmasdan "qiyla" (aytildiki) so'zini qo'llab turli qarashlarni keltiradi. Ta'vilot asarini Ibrohim Avadayn va Sayyid Avadayn tamonidan amalga oshirilgan birinchi jiltining nashrida majhul nisbatda keltirilgan bu turdagi iqtiboslardan ba'zilarining manbalarini ko'rishimiz mumkin. Imom Moturidiy tafsirida oyatning oyat bilan tafsir etishning ilk va eng chiroyli namunalari keltirgan. Sababi nuzul va hadislarga tayanib qilingan sharhlar ham oz emas. Bazan sahoba ismi zikr etilgan bu rivoyatlarda isnod zanjiri keltirilmagan. Ta'vilot asariga oid bir tadqiqotda Imom Moturidiy sahoba va tobe'in tabaqalarining to'qsonga yaqinidan rivoyat qilgani aniqlangan. Imom Moturidiy boshda Ali ibn Hamza, Yahyo ibn Zayd, Abu Ubayda Ma'mur ibn Musanna, Ibn Qutayba, Mubarroddin va Zayjoo kabi yigirmadan ortiq lug'at va tafsir olimlaridan istifoda etib, fiqh mavzularida Abu Hanifa va shogirdlari, Ibn Abu Laylo, Avzoiy, Sufyoni Savriy, Molik ibn Anas va Imom Shofeiylardan iqtiboslar keltirgan. Kalom ilmida esa eng ko'p mu'taziliy qarashlarini keltirib tanqid qilgan va raddiyalar bergan.

Imom Moturidiyning usuli Qur'onni Qur'on va sahih hadislar va xabarlar bilan, shu bilan birga aqliy xulosalar berish yo'li bilan tafsir qilishga tayanadi. Imom Moturidiy tobeinlardan e'tiboran turli shaxsiyatlarga oid rivoyat qilingan qarashlarni bazan qabul qilish yoki rad etish nuqtai nazaridan

baholaydi, bazan esa hech qanday fikr bildirmay bahsning so'ngida "Bu masalada asl narsa shudir..." deb tanqid qilib o'tadi. Masalan Kavsar surasining tafsirida "ko'p" ma'nosida kelgan "kavsar" so'zining "buyuk yaxshilik" ma'nosida kelganini, buning Payg'ambar alayhissalomga berilgan nubuvvat, qolaversa uning farishtalar kabi bilinib tanilishi, shahodat kalimasi, azon va qomat kabi butun musulmonlarning takror etuvchi so'zlarida Allohning ismi bilan bir qatorda zikr etilishi kabi boy bir mazmunga ega ekanini qayd etib so'ngra kavsarning jannatdagi bir daryo ekani borasidagi hadisga to'xtaladi va shunday baho beradi:

*"Agar bu turdagi xabarlar sahih bo'lsa kavsar undan iborat bo'ladi, bu holatda boshqa bir narsa aytishimiz kerak emas. Shoyad sahih bo'lmasa biroz avval naql qilganimiz ma'no yanada aniqroq ko'rinadi, chunki Payg'ambar alayhissalomga daryo berilishida uni sharofli qilish nuqtai nazaridan o'ziga xos bir holat ko'rinmayapti. Darhaqiqat Alloh taolo ummati muhammadiyahga bundanda ortiq [ne'mat] va'da bergandir. [3; 903]"*

Imom Moturidiy, hanafiy mazhabining eng muhim faqihlari orasidan yer olgan. Ayni paytda u nomi bilan bir mazhabning Imomi deb qabul qilinadigan darajada aqoid va kalom ilmlaridan voqifdir. Boshqa islom ilmlarida ham g'oyat yuksak martabaga ega bo'lgan Imom Moturidiyning Ta'vilot al-Qur'on nomli diroyat tafsirining ilk va muhim tamsilchilari orasidan yer olgan asarida u oyatlarni tafsir qilarkan oyatlar tafsirini tabiiyki asossiz qilmagan, ma'lum bir nizom va tartib ichida bir qancha manbalardan foydalangan. Tadqiqotchilar Imom Moturidiyning tafsir ilmida foydalangan manbalarini ikkiga: ichki va tashqi manbalarga bo'lishgan. Ichki manbalarga Qur'on, sunnat, arab tili lug'ati, sababi nuzul va qiroat ilmlari kiradi. Tashqi manbalar esa arab adabiyoti va balog'ati, sahoba qavllari, tobein va boshqa ulamolar fikrlari, mazhablarning qarashi, urf va odat, isroiliyot rivoyatlarini o'z ichiga oladi. Tafsir ilmida manbalardan foydalanishning bunday tartibini ko'plab mufasssirlar qo'llaganlar.

Ibn Kasir (vaf. 771\1369) tafsir qilishning eng to'g'ri yo'li Qur'onni Qur'on, sunnat, lug'at va salaf olimlaridan naql qilingan xabarlar bilan tafsir qilish, Qur'on ma'nolari sharhida to'g'rilik darajasining yuksakligi va xatoning oz bo'lishi uchun bu usulga uyg'un bo'lish lozimligini aytar ekan, u asosan bir

tafsir metodologiyasini emas, ko'proq salafning tafsir uslublarida tayangan manbalarni nazarda tutmoqda. Salaf olimlari Qur'onni tafsir qilar ekan, faqatgina oyatlar, hadislar va oddiy lug'aviy izohlar bilangina kifoyalanmaganlar, balki yana boshqa manbalarga ham yo'nalganlar. Arab tilining uslubi, arab adabiyoti, johiliya she'riyati, arablarning urf va odatlari, oyatlarning sababi nuzuli, qiroatdagi farqlilik va ahli kitoblardan kelgan isroiliyot xabarlariga ham murojaat qilganlar. Tobe'iyinlar davridan e'tiboran mufasssirlar sahoba qavllariga ham e'tibor berganlar va ularni bu manbalar qatoriga qo'shganlar. Yuqorida keltirib o'tilingan manbalar rivoyat tafsirining tamal manbalarini tashkil etmoqda. Salaf olimlari boshchilik, klassik davr mufasssirlari ham bu manbalar tartibidan foydalanganlar. Hanafiylik ta'limoti muhitida yetishgan Abu Mansur al-Moturidiy ham o'z asarida yuqoridagi manbalardan keng foydalangan [2; 14].

Xulosa o'rnida aytish mumkinki Imom Moturidiy tafsir uslubida aqlga tayanibgina qolmay, rivoyatlarga qattiq tayangan, bundan tashqari u oyatlarni oyat bilan ham tafsir qilgan.

**Ta'vilot al-Qur'on asarida oyatning hadis bilan tafsir qilish.** Tafsir ilmida Qur'ondagi hukmlarni bayon qilib berish Payg'ambar alayhissalomga yuklatilgani, Qur'onni yetkazish barobarida insonlarga uni tushuntirish, ba'zan esa mubham va mutashobeh oyatlarni izohlab berish kabi vazifani bajarganliklari ta'kidlanadi. Bu ham Qur'onni sunnat bilan tafsir qilish ma'nosida kelmoqda. Bu ma'noda Hazrati Payg'ambar alayhissalom ilk mufasssirdirlar.

Oyatlarni tafsir qilishda sunnatni va hadislarini e'tiborga olish lozimligi ko'rsatilgan boshqa sabablar ham bor. Masalan, oyatning oyat bilan tafsiri barcha oyatlarni qamrab olmagan va ularning ma'nolarini to'liq ochib bermagan. Chunki o'rtasida mavzu va ma'no mutanosibligi bo'lgan oyatlar Qur'on oyatlarining bir qismidir. Bunday holat Qur'on tafsir qilishda boshqa manbalarga murojaat qilishni taqazo qiladi. Bu o'rinda birinchi keladigan manba hadislardir. Oyatlarni tafsir qilishda hadislardan tafsir etish manbai sifatida foydalanish, bir tamondan Qur'on-sunnat birligini ta'minlash, ikkinchi tamondan esa Payg'ambar alayhissalomning ba'zi oyatlarga qilgan tafsirlarini ko'rsatish jihatidan diqqatga sazovor va mo'tabardir.

Hijriy to'rtinchi asrning boshlarigacha yuzaga kelgan tafsir ilmida sunnat muhim o'rin tutganini ko'ramiz. Mufasssirlar Payg'ambar alayhissalomni Qur'onning ilk mufasssiri, U zotning hadislarini esa bog'liqligi bo'lgan oyatlarning ilk tafsirlari sifatida ko'rganlar. Klassik davr mufasssirlaridan hech kim hadislariga murojaat qilmasdan tafsir yozmagan. O'zidan avvalgi mufasssirlarning bu uslubini o'zlashtirgan Imom Moturidiyning tafsir usulida ham sunnat muhim o'rin tutadi.

Imom Moturidiy oyatlarni oyat bilan tafsir qilishdagi kabi oyatni sunnat bilan tafsir qilishda ham usulini ehtiyojga qarab belgilagan. Bu masalada birinchi ehtiyoj Qur'onni noto'g'ri tushunishning oldini olishdir. Bunda *"Haj va umrani Alloh uchun mukammal ado eting!.."* [1] oyati chiroyli misolni tashkil qiladi. Bir qarashda, bu oyat hajni ham umrani ham farz qilgan deb o'ylash mumkin, zero bu oyat haj kabi umrani ham mukammal ado etishni buyurmoqda. Imom Moturidiy bu ikki ibodatning farz yoki farz emasligi bu oyat bilan emas, *"Yo'lga qodir bo'lgan odamlar zimmasida Alloh uchun Baytni haj qilish (farzi) bordir."* [1] oyati ma'lum bo'lishi va shu oyatga ko'ra faqat haj ibodati farz qilinganini ta'kidlaydi. Imom Moturidiy o'zi mansub bo'lgan Hanafiy mazhabining qarashini eslatar ekan, bu mazhab olimlarining Jobir ibn Mas'ud r.a va Hazrati Oisha r.a.dan rivoyat qilingan, hajning farz, umraning sunnat ekani bildirgan hadislarini dalil qilib keltirganliklarini aytadi [3; 380-381]. Shu tariqa Imom Moturidiy sunnatga ham oyatlarni noto'g'ri tushunilishni oldini olish ham ulardan hukmlarni istinbot qilish vazifani yuklaydi.

Ba'zan Imom Moturidiy nazarida sunnat, bir oyatning hukmini yengillashtiruvchi yoki og'irlashtiruvchi unsur sifatida namoyon bo'ladi. *"Yer (yuzi) bo'ylab safar qilganingizda, agar kofirlarning sizlarga fitna (hujum) qilishidan qo'rqsangiz, namozni qasr (qisqa) qilishingizda sizlar uchun gunoh yo'qdir."* [1] oyatida namozni qasr (qisqa) qilish safarda dushmandan keladigan hujum shartiga bog'lanmoqda. Imom Moturidiy bu oyatni tafsir qilarkan, Payg'ambar alayhissalom avvallari omonlikda bo'lganlarida namozlarni qasr qilmaganliklarini, faqat keyinchalik Alloh taolo bu shartni olib tashlaganini va (oyatning) hukmi safar qilishni qamrab olgan shaklda kengaytirilganini aytadi. Safarda xavf bo'lmasa ham farz namozlarni qasr qilish kerakligi hukmi Payg'ambar alayhissalomning *"Bu, Allohning*

*sizga bergan sadaqasidir, U (bergan) sadaqani qabul qiling"* hadislariga va bu hadisga o'xshash boshqa hadislariga asoslanadi [3; 8-10].

Tafsir ilmida Payg'ambar alayhissalom Qur'oni karimning qancha qismini tafsir etganliklari, necha qismini to'g'ridan-to'g'ri va necha qismini bilvosita tafsir qilganliklari bahslidir. Shu aytish mumkinki, mufasssirlar bir oyatni tafsir qilishda ba'zan o'sha oyat bilan uzoqdan bog'liq bo'lgan, hatto bir-biriga a'loqasi yo'qdek tuyulgan hadislardan ham foydalanishlari mumkin. Imom Moturidiyning ham *"Bugun, diningizni kamoliga yetkazdim"* [1] oyati tafsirida xuddi shunday yo'l tutganini ko'ramiz. Moturidiy oyatdagi *"akmaltu"* kalimasini *"ustun qildim"* shaklida izohlab, buni quvvatlash uchun *"Dushmanga ikki oylik yo'ldan qo'rquv soladigan qadar yordam etildim"* va *"Bu yildan keyin hech qaysi mushrik [Ka'bani] haj etolmaydi"* hadislarini zikr qiladi [3; 150-151].

Bizga ma'lumki, sunnat Qur'on oldida ikki vazifani bajaradi, ulardan biri uni tafsir qilish [bayon], ikkinchisi esa unga zid bo'lmagan hukmlarni chiqarish. Moida va An'om suralarida go'shti harom qilingan hayvonlardan faqat cho'chqa nomi keltirilganini ko'rishimiz mumkin. Bunda cho'chqadan boshqa har hayvonning go'shti halol bo'ladimi yoki harommi? Bu hususda qanday mezon asos bo'ladi? Imom Moturidiy bu masalaga Payg'ambar alayhissalomning oziq tishi bo'lgan yirtqich hayvonlar va panchalari bilan ov qiluvchi qushlar go'shti haromligini bildirgan hadislarini dalil qilib keltiradi [3; 240].

Imom Moturidiy tafsir qilgan oyati mavzusi bilan ayni mavzuda yoki o'xshash bo'lgan hadislariga tayanib oyattan chiqqan hukm uslubiga mos hukmlar chiqaradi. *"Ey, mo'minlar! Toki gapirayotgan gaplaringizni (o'zlaringiz) biladigan bo'lgunlaringacha, mast hollaringda namozga yaqinlashmangizlar"* [1] oyatini tafsir qilar ekan mast odamning balki qasddan bo'lmasa ham faqat xato qilib namozni buzadigan so'zlar aytishi mumkinligini va bu sababdan namozga yaqinlashmasligi kerakligini aytgandan so'ng namozni anglay olmaydigan darajadagi odam namoz qilmasligi borasidagi hadisni keltirib o'tadi.

Imom Moturidiy tafsirida zikr qilingan hadislarining yana bir o'ziga xosligi ba'zi hadislarining matnlari bizgacha yetib kelgan mo'tabar hadis kitoblarida keltirilgan hadis matnlaridan farqliligidadir. *"Qochib ketgan qulning va (eriga) qaysarlik qilgan ayolning*

namozi yo'qdir" hadisi bunga misol bo'ladi. Imom Moturidiy bu hadisni yuqorida aytib o'tganimiz mast holatda namozga yaqinlashmaslik oyati tafsirida keltirib o'tgan. Imom Moturidiy, "bu hadisda namoz emas qulning qochib ketishi va qaysarlikdan qaytarilmoqda" deydi va bunday sabablardan ta'qiqlangan ibodatlarining barchasi ayni shaklda bo'lishini va bularda aynan ibodatlar emas balki sabablar ta'qiqlanganini aytadi [3; 239]. Endi ushbu hadisning boshqa hadis kitoblarda farqli matnlar bilan keltirilganini kelsak, Abdurrazzoqning (211/826) "al-Musannif" asarida bu hadis, "Uch toifa borki, namozlari quloqlaridan yuqoriga ko'tarilmas: qaytib kelib qo'lini hojasining qo'liga qo'ymaguncha hojasidan qochgan qul, ustida haqi bo'lgan erini norozi qilgan holda kecha o'tkazgan ayol va bir jamoat uni sevmagan holda u jamoatga imomlik qilgan kishi" shaklida keladi. Ibn Huzaymaning "As-Sihoh" asarida esa hadisning matnida uchunchi toifa "o'ziga kelmaguncha mast odamning" deb keltiriladi. Hadislardan ma'nosini olib rivoyat qilish joizligi va bu sababdan hadislar orasida oz yoki bir qancha farqlilik topilishi bu sohadan biroz xabardor bo'lgan odam biladi albatta. Faqat Qur'on va tafsir ilmida bo'lgani kabi hadis ilmida ham ilg'or ko'riluvchi Imom Moturidiy manbalarda keltirilmagan matnlarni hadis nomi bilan naql qilishi kutilmaydi tabiiyki. Uning hadis matnlarida xatolik bilan yoki qasddan o'zgartirish kiritib yuborishi ham ehtimoldan uzoqdir. Zero fiqh va kalom kabi ilmlarda chuqur bilimga ega ekani, uning bir matn o'zgarishi hukmlarda nimalar o'zgarib ketishini anglashini bildiradi [2; 15].

Imom Moturidiy o'z tafsirida hadislardan chuqur foydalangan va oyatlarni tafsir qilishda albatta hadislarga murojaat qilgan. Ba'zi hadislarni roviylari bilan keltirishni lozim topmasada asarida ishunchli hadislarni naql qilgan. U oyat tafsirida bir hadisni keltirar ekan u hadisni izohlashda yana boshqa bir hadisni ham rivoyat qilgan.

### XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki Movarounnahr diyorida yuzaga kelgan kalom maktabi asoschisi bo'lgan Imom Moturidiy ayni damda Movarounnahr rivoj topgan tafsir ilmida ham alohida o'ringa ega. Uning tafsir ilmida tutgan yo'li diroyat, ta'vil usullari bo'lsada o'zining tafsirida rivoyatlarga katta o'rin bergan bo'lib, tafsir asarining asosiy manbasi Qur'on va sunnat

hisoblangan. Imom Moturidiy Qur'onni aql bilan tafsir qilishda faqat aqlga emas balki rivoyatlarga tayanish zarurligi ta'kidlagan. Bunda u hadislarga alohida e'tibor qaratgan. Aql bilan qilingan tafsirlar esa birlamchi manba bo'lgan Qur'on va sunnatga zid bo'lmasligiga alohida ahamiyat bergan.

Imom Moturidiy oyatlarni oyat bilan tafsir qilishdagi kabi oyatni sunnat bilan tafsir qilishda ham usulini ehtiyojga qarab belgilagan. Bu masalada birinchi ehtiyoj Qur'onni noto'g'ri tushunishning oldini olishdir. Oyatlarni tafsir qilishda sunnatni va hadislarni e'tiborga olish lozimligi ko'rsatilgan boshqa sabablar ham bor. Masalan, oyatning oyat bilan tafsiri barcha oyatlarni qamrab olmagan va ularning ma'nolarini to'liq ochib bermagan. Chunki o'rtasida mavzu va ma'no mutanosibligi bo'lgan oyatlar Qur'on oyatlarining bir qismidir. Bunday holat Qur'on tafsir qilishda boshqa manbalarga murojaat qilishni taqazo qiladi. Bu o'rinda birinchi keladigan manba hadislardir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi: Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2018. – 624 b.
2. Ali Rıza GÜL. Mâtürîdî'nin Te'vilâtü'l-Kur'ân'da Kullandığı Veri Kaynaklarına Ahkâm Ayetleri Ekseninde Bir Yaklaşım (ilmiy maqola: <https://dergipark.org.tr>)
3. Moturidiy. Ta'vilot al-Qur'on. – Bayrut: Dorul kutub al-ilmiyya, 2005.
4. Prof.Dr. Hatice K.Arpağuş va bosh. İmam Mâtürîdî ve Te'vilâtül-Kur'an. –İstanbul, 2019.
5. Sönmez Kutlu. İmam Maturidi ve Maturidilik. – Anqara: Aytinti basim evi, 2018.
6. Ahmad ibn Avazulloh al-Harbiy. Al-Moturidiya: dirosatan va taqviman. – Ar-Riyod: "Dor as-samiy", 2000.
7. Oqilov S. Abul Muin an-Nasafiy ilmiy merosi va moturidiya ta'limoti. Monografiya. – Toshkent: Nur poligraf, 2008.
8. Doktor Muhammad Ayyub Ali. Aqidat al-islom val Imom al-Moturidiy. – Bangladesh: "al-Muassasa al-islomiya", 1984.
9. Oqilov S. Abu Mansur al-Moturidiy ilmiy me'rosini va moturidiya ta'limoti. –Toshkent.: Hilol Nashr, 2020. – 344 b.